NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

60310100 – Siyosatshunoslik

Bakalavriat

www.nqaae.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

60310100 – Siyosatshunoslik

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA YAKUNIY HISOBOT

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI

	**Rais: KARIMOV FARXOD ERKINOVICH** **O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi** **fan doktori (DSc)**
	**A’zo: TAMTA TSKHOVREBADZE** **Webster University Georgia (Gruziya)** **fan doktori (DSc)**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260110
Xulosa raqami	1431
Xulosa sanasi	02.08.2026
Ta’lim tashkilotining to‘liq nomi	“NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI” DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma’lumotlari	Namangan viloyati, Namangan tumani, Boburshox ko‘chasi, 161-uy. Litsenziya: № 356, 28.02.1992. Guvohnoma: MAS № 0000480, 07.08.2026.
Baholangan ta’lim dasturi nomi	Siyosatshunoslik
Yo‘nalish / mutaxassislik kodi	60310100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O‘rta maxsus, kasbiy, oliy ta’limni va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA’LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta’lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: *License/Certificate of Educational Institution:*	№ 356, 28.02.1992
2. Ta’lim tashkilotining turi: *Type of Educational Institution:*	Davlat oliy ta’lim tashkiloti
3. Ta’lim dasturi kodi va nomi: *Code and Name of Study Programme:*	60310100 – Siyosatshunoslik
4. Ta’lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in English:*	60310100 – Political Science
5. Ta’lim dasturining rus tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in Russian:*	60310100 – Политология
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: *Offered in Cooperation with:*	—
7. Ta’lim tili: *Medium of Instruction:*	o‘zbek
8. Ta’lim shakli: *Mode of Study:*	kunduzgi
9. Ta’lim dasturi hajmi: *Study Programme Credits:*	240 kredit
10. Ta’lim dasturi davomiyligi: *Duration of Study Programme:*	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: *Level in National Qualifications Framework:*	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: *Qualification Title:*	Siyosatshunos. Siyosiy tahlilchi mutaxassis
13. Qo‘shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: *Additional Qualifications Awarded:*	—
14. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: *Type of Document Issued Upon Completion:*	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta’lim oluvchilarning me’yoriy miqdori (to‘liq davr): *Maximum Number of Students (full period):*	200 nafar
16. Ta’lim dasturini o‘qitish manzili: *Address Where the Study Programme is Delivered:*	Namangan viloyati, Davlatobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi, 30-uy

4. BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA MEZONLAR BO‘YICHA NATIJALAR

Har bir yo‘nalish bo‘yicha baho (muvofiq / muvofiq emas) va har bir mezon bo‘yicha baho (muvofiq / qisman muvofiq / muvofiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	**Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash**	**Muvofiq**
1.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;**	Muvofiq
1.2.	*ta’lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;*	Muvofiq
1.3.	*ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani;*	Muvofiq
1.4.	*mehnat bozori va ta’lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha monitoring tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
2.	**Ta’lim dasturlari**	**Muvofiq**
2.1.	*manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;**	Muvofiq
2.2.	*ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
2.3.	*ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani;*	Muvofiq
3.	**O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash**	**Muvofiq**
3.1.	*ishchi o‘quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;**	Muvofiq
3.2.	*o‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani;**	Muvofiq
3.3.	*o‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;*	Muvofiq
3.5.	*ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi;*	Muvofiq
3.6.	*talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;*	Muvofiq
3.7.	*ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	**Talabalar faoliyati**	**Muvofiq**
4.1.	*ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani;*	Muvofiq
4.2.	*qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;**	Muvofiq
4.3.	*talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;**	Muvofiq
4.4.	*talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
5.	**Inson resurslari**	**Muvofiq**
5.1.	*ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;**	Muvofiq
5.3.	*yangi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi;**	Muvofiq
5.4.	*kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
6.	**Moddiy-texnik ta’minot**	**Muvofiq**
6.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo‘llanma (ko‘rsatma)lar bilan ta’minlangani;**	Muvofiq
6.2.	*fanlar kesimida o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta’minlangani;**	Muvofiq
6.3.	*o‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;**	Muvofiq
6.4.	*inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;*	Muvofiq
6.5.	*axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	*raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari);*	Muvofiq
6.7.	*ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.*	Muvofiq

5. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash yo‘nalishi

Ta’lim dasturining maqsad va vazifalari amaldagi malaka talablari hamda mutaxassislik yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq shakllantirilgan bo‘lib, uni amalga oshirish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv asoslari yaratilgan. Dastur faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas’ul kafedra belgilanganligi boshqaruv jarayonlarining izchilligini ta’minlash, tegishli vazifalarni taqsimlash va ta’lim sifatini nazorat qilishga xizmat qiladi. Ichki sifatni ta’minlash va monitoring mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilganligi ta’lim jarayoni natijalarini muntazam kuzatish, mavjud ehtiyojlarni aniqlash hamda dastur mazmunini takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, siyosatshunoslik sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan analitik fikrlash, siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, ommaviy nutq va samarali kommunikatsiya kompetensiyalarini dastur hujjatlarida yanada aniqroq ifodalash zarurligi qayd etilgan. Kutilayotgan ta’lim natijalarini mazkur kasbiy kompetensiyalar bilan bevosita bog‘lagan holda takomillashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni aniqlashtirish va o‘quv jarayonining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Dastur maqsadlari, ta’lim natijalari va kasbiy kompetensiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirish ichki sifatni boshqarish mexanizmlarining samaradorligini oshirish hamda ta’lim mazmunini kasbiy faoliyat ehtiyojlariga moslashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tahlil yakunlariga ko‘ra, mavjud tashkiliy-boshqaruv tizimi, dastur maqsadlari va ichki sifatni ta’minlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

2-bob. Ta’lim dasturlari yo‘nalishi

Ta’lim dasturining mazmuni amaldagi milliy ta’lim talablari va tegishli malaka me’yorlariga muvofiq shakllantirilgan bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi hamda fanlar mazmunini takomillashtirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Baholash jarayonida universitet ishchi guruhi tomonidan o‘quv rejasi va fan dasturlari qayta

ko‘rib chiqilib, mazmunan takrorlanuvchi mavzular qisqartirilgan hamda bir qator fanlarning tarkibi va o‘qitish mazmuni yangilangan. Mehnat bozori ehtiyojlari va zamonaviy kasbiy faoliyat talablarini inobatga olgan holda yangi tanlov fanlarining kiritilganligi talabalarning individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish va kasbiy tayyorgarligini kengaytirish imkonini beradi. O‘quv fanlari o‘rtasidagi mazmuniy izchillikning kuchaytirilganligi nazariy bilimlarni tizimli o‘zlashtirish, siyosiy jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ta’lim resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim dasturini kompetensiyalarga asoslangan yondashuv asosida yanada rivojlantirish va dastur darajasidagi kutilayotgan ta’lim natijalari tizimini (Programme Learning Outcomes) joriy etish zarurligi qayd etilgan. Mazkur tizimning shakllantirilishi fanlar bo‘yicha o‘quv natijalarini dastur maqsadlari bilan muvofiqlashtirish, kasbiy kompetensiyalarning shakllanish darajasini baholash va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga ko‘ra, ta’lim dasturining yangilangan mazmuni, fanlar tarkibi va mehnat bozori talablariga yo‘naltirilganligi belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiqligi tasdiqlandi.

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishi

O‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishga oid me’yoriy-uslubiy hujjatlar qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lib, o‘quv rejalari hamda fan sillabuslari milliy va xalqaro ta’lim standartlari talablariga muvofiqlashtirilgan. Fanlar mazmunining qayta tizimlashtirilganligi, takrorlanuvchi mavzularning bartaraf etilganligi va kreditlarning ECTS talablariga muvofiq qayta taqsimlanganligi o‘quv jarayonining mazmuniy izchilligini ta’minlash hamda talabalar o‘quv yuklamasini maqbullashtirishga xizmat qiladi. O‘quv rejalarini takomillashtirishda ish beruvchilar ishtirokining ta’minlanganligi ta’lim mazmunini kasbiy faoliyat ehtiyojlariga moslashtirish va bitiruvchilarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish imkonini beradi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘zaro uyg‘unlashtirilganligi talabalarning siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, olingan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Baholash tizimining belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilganligi o‘quv natijalarini xolis aniqlash va talabalarning bilim hamda ko‘nikmalarini muntazam nazorat qilish uchun zarur sharoit yaratadi. Shu bilan birga, muzokaralar olib borish, liderlik va siyosiy kommunikatsiya kabi kasbiy faoliyat uchun muhim yumshoq ko‘nikmalarni

rivojlantirish hamda simulyatsion mashg‘ulotlar ulushini oshirish o‘quv jarayonini yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Tahlil yakunlariga ko‘ra, o‘quv jarayonining me’yoriy-uslubiy ta’minoti, fanlar mazmuni, kreditlar taqsimoti va baholash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo‘nalishi

Talabalarning sifatli ta’lim olishi, akademik maslahat xizmatlaridan foydalanishi, amaliyot o‘tashi va bilimlarini baholash jarayonlarida ishtirok etishi uchun zarur tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari shakllantirilgan. O‘rganish jarayonida talabalar huquq va majburiyatlarining ichki me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solinganligi, ta’lim jarayonida ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan tegishli tartiblar mavjudligi aniqlangan. Akademik maslahatchilar faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi talabalarga o‘quv jarayonini rejalashtirish, fanlarni o‘zlashtirish va individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirishda zarur uslubiy yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi. Talabalar fikrini muntazam o‘rganishga qaratilgan so‘rovnomalar tizimining mavjudligi ta’lim sifati, o‘qitish usullari va o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha ehtiyoj hamda takliflarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, so‘rovnomalar natijalarini tahlil qilish, bildirilgan takliflar asosida tegishli chora-tadbirlarni belgilash va ularning bajarilishini monitoring qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligi qayd etilgan. Talabalar fikrining ta’lim dasturini rivojlantirishga amaliy ta’sirini oshirish talabaga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini mustahkamlash, akademik xizmatlar sifatini yaxshilash va ta’lim jarayonining natijadorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga ko‘ra, talabalar faoliyatini tashkil etish, akademik maslahat berish, amaliy tayyorgarlik va qayta aloqa mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiqligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish va professor-o‘qituvchilar salohiyatini izchil rivojlantirish maqsadida pedagog kadrlar tarkibi qayta shakllantirilgan bo‘lib, asosiy shtatda faoliyat yurituvchi professor-o‘qituvchilar ulushini kamida 70 foizga yetkazish bo‘yicha tegishli rejalar ishlab chiqilgan. Kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish rejasining qabul qilinganligi inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni istiqbolli rejalashtirish va ilmiy-pedagogik faoliyatning barqarorligini ta’minlash uchun muhim

tashkiliy asos yaratadi. Kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmining yo‘lga qo‘yilganligi, istiqbolli mutaxassislarni doktoranturaga maqsadli tayyorlash va xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha rejalarning ishlab chiqilganligi pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan. Professor-o‘qituvchilar faoliyatini asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida rag‘batlantirish tizimining joriy etilganligi ularning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va kasbiy rivojlanish faoliyati natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, siyosiy fanlar bo‘yicha ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilar ulushini oshirish zarurligi aniqlangan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda belgilangan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ixtisoslashgan ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini mustahkamlash siyosiy jarayonlarni ilmiy tahlil qilish, zamonaviy tadqiqot yondashuvlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tahlil yakunlariga ko‘ra, professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta’minot yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik infratuzilma shakllantirilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini tashkil etishga mo‘ljallangan auditoriyalar, kompyuter texnikasi, proyektorlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlanganligi aniqlangan. HEMIS axborot tizimi, elektron ta’lim muhiti, Wi-Fi tarmog‘i va elektron kutubxonaning faoliyat yuritishi o‘quv jarayonini raqamli boshqarish, ta’lim resurslaridan foydalanish hamda talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasidagi axborot almashinuvini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Axborot-resurs markazida IRBIS elektron katalogining yuritilishi mavjud adabiyotlar fondidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va zarur ilmiy manbalarni izlash jarayonini yengillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta’limni ta’minlash maqsadida panduslar, Brayl alifbosidagi kitoblar, JAWS dasturi o‘rnatilgan kompyuterlar va audio resurslarning mavjudligi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega talabalar uchun zarur sharoitlar yaratilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kutubxona fondini xalqaro reytinglarda TOP-300 talikka kiruvchi universitetlar tomonidan nashr etilgan siyosatshunoslikka oid zamonaviy xorijiy ilmiy adabiyotlar bilan muntazam boyitish zarurligi qayd etilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ishlarni kuchaytirish talabalarning ilg‘or xalqaro ilmiy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, siyosiy tahlil va tadqiqot

kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim dasturining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Tahlil yakunlariga ko‘ra, moddiy-texnik ta’minot, raqamli ta’lim infratuzilmasi, axborot-resurs xizmatlari va inklyuziv ta’lim sharoitlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

6. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi):

Ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish uchun to‘sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo‘lgan juz’iy kamchiliklar:

- ✓Siyosatshunoslik fanlaridan dars berayotgan ayrim professor-o‘qituvchilarning ilmiy ixtisosligi (asosan tarix yo‘nalishi) o‘qitilayotgan fanlarga to‘liq mos emas, siyosiy fanlar bo‘yicha ilmiy darajali pedagoglar ulushi yetarli emas.
- ✓Dastur darajasida aniq va o‘lchanadigan o‘quv natijalari to‘liq shakllantirilmagan, fanlarning dastur maqsadlariga qo‘shayotgan hissasini baholash mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan.
- ✓Asosiy adabiyotlar ko‘proq mahalliy manbalardan iborat, laboratoriya va o‘quv xonalarida xavfsizlik jurnallari, birinchi tibbiy yordam vositalari va evakuatsiya sxemalari bo‘yicha dalillar yetarli emas.

7. TA’LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

- ✓Siyosiy fanlar bo‘yicha ilmiy darajali pedagoglar ulushini oshirish, mutaxassislik fanlarini ixtisosligi mos kadrlarga biriktirish va xalqaro ilmiy bazalardagi faollikni rag‘batlantirish.
- ✓Ta’lim natijalarini kompetensiyalarga yo‘naltirilgan holda qayta ishlab chiqish, Programme Learning Outcomes tizimini joriy etish va baholashning aniq metodologiyasini ishlab chiqish.
- ✓Soft skills (muzokaralar, liderlik, mantiqiy fikrlash, siyosiy kommunikatsiya) va simulyatsion mashg‘ulotlarni kuchaytirish hamda xorijiy tilda kasbiy hujjatlar bilan ishlashni rivojlantirish.
- ✓Kutubxona fondini siyosatshunoslikka oid zamonaviy xorijiy adabiyotlar bilan boyitish va xavfsizlik dalillarini (jurnallar, evakuatsiya sxemalari) hujjatlashtirish.

8. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA YAKUNIY XULOSA

60310100 – “Siyosatshunoslik” bakalavriat ta’lim dasturi bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar, o‘quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, professor-

o‘qituvchilar salohiyati hamda moddiy-texnik ta’minot belgilangan akkreditatsiya mezonlari asosida har tomonlama o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, dastur maqsadlari amaldagi malaka talablariga muvofiq shakllantirilgan, mas’ul kafedra faoliyati hamda ichki sifatni ta’minlash va monitoring mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Baholash jarayonida o‘quv rejalari va fan dasturlari qayta ko‘rib chiqilib, takrorlanuvchi mavzular bartaraf etilgan, mehnat bozori ehtiyojlariga mos yangi tanlov fanlari kiritilgan hamda kreditlar ECTS talablariga muvofiq taqsimlangan. Talabalarni akademik qo‘llab-quvvatlash, maslahat berish va ularning fikrini o‘rganish tizimi shakllantirilgan. Professor-o‘qituvchilar salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish rejasi qabul qilingan, kadrlar zaxirasini shakllantirish va rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilgan. Ta’lim jarayoni uchun zarur auditoriyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, HEMIS tizimi, elektron kutubxona va inklyuziv ta’lim resurslari mavjudligi tasdiqlangan. Shu bilan birga, kasbiy kompetensiyalar va ta’lim natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish, simulyatsion mashg‘ulotlarni kengaytirish, ilmiy darajali pedagoglar ulushini oshirish hamda kutubxona fondini zamonaviy xorijiy adabiyotlar bilan boyitish bo‘yicha takomillashtirish yo‘nalishlari belgilangan. Mazkur tavsiyalar dasturni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydi va uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Baholash yakunlariga ko‘ra, oltita bob doirasidagi 27 ta akkreditatsiya mezonining barchasi muvofiq deb topildi. Umuman olganda, 60310100 – “Siyosatshunoslik” bakalavriat ta’lim dasturi belgilangan akkreditatsiya talablariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	03.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	6-son
Yakuniy qaror:	**AKKREDITATSIYADAN O‘TDI**

Guvohnoma (MAS № 0000480) haqiqiyligini NQAAE davlat akkreditatsiyasi reyestrida tekshirish uchun QR kod

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot